O'zbekiston Yoshlar ittifoqi

BIZ — KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

# YOSHLAR OVOZI

Молодежь Узбекистана

№ 36 (16442)
2021-YIL
6-OKTABR,
CHORSHANBA

WWW.YOSHLAROVOZI.UZ
YOSHLAROVOZIUZ@MAIL.RU
@YOSHLAROVOZIUZ
@YOSHLAROVOZI

IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY, ADABIY-BADIIY GAZETA

# Millat ibrati







▶10

24 OKTABR 2021-YIL O'ZBEKISTON PREZIDENTI SAYLOVI

## USTOZ OTANGDEK ULUG'!

### Sotsial-demokratlar o'qituvchi maqomini yanada ko'tarish tarafdori



**Ismoil SAIFNAZAROV,**
**falsafa fanlari doktori,**
**TDIU professori**

O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasining Prezidentlikka nomzodi Bahrom Abduhalimov o'zining saylovchilar bilan ilk uchrashuvini Qoraqalpog'istondan boshladi. Bu uchrashuvda nomzod ta'lim sohasi islohotlariga alohida to'xtalib, ta'limga investitsiya kiritish – O'zbekiston kelajagiga sarmoya kiritish, xalq farovonligi, davlatning raqobatdoshligini ta'minlashning muhim omilidir, deb ta'kidladi.

Darhaqiqat, ta'lim sohasi jamiyatimizning eng nozik, eng tayanch sohasi, desak yanglishmaymiz, agar bu sohani o'nglab olsak, boshqa sohalar ham o'z-o'zidan rivojlanish yo'liga tushib oladi.

Davomi 12-sahifada.

IJTIMOIY SO'ROV

## YOSHLAR VA QADRIYATLAR

***Bugungi kunda jamiyatda ma'naviy qadriyatlarni tiklash, axloqiy ideallarni shakllantirish va millatning, ayniqsa, yoshlarning intellektual salohiyatini yuksaltirish ustuvor vazifadir. Yosh avlodni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan jismonan va ma'nan sog'lom, vatanparvar insonlar etib voyaga yetkazish uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etish talab etiladi. Negaki, ma'naviy-axloqiy rivojlanish mamlakatni modernizatsiya qilishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.***

"Ijtimoiy fikr" respublika jamoatchilik fikrini o'rganish Markazi jamiyatda fuqarolarning qadriyatlarini o'rganish, so'nggi yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va hayotning barcha sohalari erkinlashishi ta'sirida aholi, ayniqsa, yoshlarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, axloqiy, huquqiy ongida sodir bo'layotgan asosiy o'zgarishlarni aniqlash maqsadida "O'zbekiston fuqarolarining qadriyatlari" mavzusidagi sotsiologik tadqiqotni muntazam ravishda o'tkazib keladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekistonda ro'y berayotgan ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar fuqarolar va yoshlarning qadriyatlar tizimiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Davomi 4-sahifada.

## TAKOMILLASHGAN SAYLOV QONUNCHILIGI



### Prezidentlik saylovlarini ochiq, oshkora va xolis o'tkazishga zamin yaratadi

**Shuhrat FAYZIYEV,**
**Markaziy saylov komissiyasi eksperti,**
**Toshkent davlat yuridik universiteti professori,**
**yuridik fanlar doktori**



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi mamlakatimiz hayotidagi g'oyat muhim ijtimoiy-siyosiy voqea hisoblanadi. Chunki bu davlat rahbari – Prezidentni saylash bilan bog'liq o'ta mas'uliyatli jarayondir. Zero, mamlakatimiz kelajagi, uning yanada taraqqiy topishi davlat rahbari lavozimiga eng munosib nomzodni saylash hamda bu jarayonda saylovchilar qabul qiladigan qarorga bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovlga tayyorgarlik ko'rish hamda uni demokratik tarzda ochiq va oshkora o'tkazish bilan bog'liq masalalar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Joriy yilning 24-oktabrida bo'lib o'tadigan Prezident saylovi milliy saylov amaliyoti va xalqaro saylov me'yorlariga mos ravishda qabul qilingan saylov qonunchiligi asosida o'tkaziladi.

#### O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SAYLOVI TO'G'RISIDAGI QONUNCHILIK HUJJATLARI TIZIMI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovlga oid qonunchilik hujjatlari tizimi quyidagilardan iborat: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992-yil 8-dekabr); O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi (2019-yil 25-iyun); O'zbekiston Respublikasining «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi qonuni (1996-yil 26-dekabr), «Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida»gi qonun (2004-yil 30-aprel); O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining qarorlari.

Davomi 6-7-sahifalarda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI

# BOLALARNI QO'LLAB-QUVVATLASH JAMOAT FONDI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, shuningdek, ehtiyojmand oilalarning farzandlarini, chin yetimlarni, og'ir kasalliklarga chalingan va nogironligi bo'lgan bolalarni davolash, ularning ta'lim olishini, uy-joy bilan ta'minlanishini hamda kasb egallashlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida:

1. Oliy Majlis palatalari va Vazirlar Mahkamasining **Bolalarni qo'llab-quvvatlash jamoat fondini** (keyingi o'rinlarda – Bolalar jamoat fondi) tashkil etish va unga muassislik qilish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

2. Quyidagilar Bolalar jamoat fondining **eng muhim vazifalari** etib belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin:

**og'ir vaziyatga tushgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni** aniqlash va ularga manzilli ijtimoiy va moddiy yordam ko'rsatish tadbirlarini tashkil etish va moliyalashtirish;

**bolalarning hayoti uchun xavf soluvchi og'ir, surunkali hamda kam uchraydigan (orfan) kasalliklarga o'z vaqtida tashxis qo'yish va ularni** respublikada yoki zarur hollarda xorijiy davlatlarda davolash uchun tibbiy, ijtimoiy va moliyaviy yordam ko'rsatishning qo'shimcha mexanizmlarini joriy etish;

ehtiyojmand oilalarning farzandlari hamda **imkoniyati cheklangan bolalarni bepul dori vositalari, tibbiy va protez-ortopedik buyumlar bilan ta'minlash**;

**jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni ta'lim olishlarida ko'maklashish**, shu jumladan, maxsus o'quv adabiyotlar va o'quv qurollari bilan ta'minlash;

**nogironligi bo'lgan bolalarni ijtimoiy moslashtirish**, ularga qiziqishlaridan kelib chiqib kasb-hunar o'rgatish va ularni uy sharoitida o'zini o'zi band qilishi uchun asbob-uskunalar bilan ta'minlash;

**og'ir tashxisli kasalliklari bo'lgan** bolalarni **parvarish qilayotgan** kam ta'minlangan oilalarni homiylikka olish;

nogironligi bo'lgan bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga doir, shu jumladan, ularga **yuqori texnologik ixtisoslashgan reabilitatsion** tadbirlarni tashkil etish va moliyalashtirish.

3. Quyidagilar:

Bolalarni qo'llab-quvvatlash jamoat fondining **Vasiylik kengashi** tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

Bolalarni qo'llab-quvvatlash jamoat fondi Vasiylik kengashining yordamchi organi sifatida **Ekspertlar guruhi** tarkibi 2-ilovaga muvofiq;

Bolalarni qo'llab-quvvatlash jamoat fondi **ijro direksiyasi**ning boshqaruv xodimlari cheklangan soni **10 nafar** bo'lgan tuzilmasi 3-ilovaga muvofiq;

Bolalarni qo'llab-quvvatlash jamoat fondi ijro direksiyasi tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning **homiylik yordamlarini olish** bo'yicha murojaatlarni qabul qilish va ko'rib chiqish sxemasi 4-ilovaga muvofiq ma'qullansin.

4. Ma'lumot uchun qabul qilinsinki:

Bolalar jamoat fondi **boshqaruvining yuqori organi** uning **muassislari umumiy yig'ilishi hisoblanib,** ushbu yig'ilish har yili kamida bir marta o'tkaziladi;

Bolalar jamoat fondining Vasiylik kengashi Bolalar jamoat fondi boshqaruvining **umumiy yig'ilishlari oralig'idagi rahbar organidir**;

Bolalar jamoat fondi ijrochi direktori lavozimga Bolalar jamoat fondining Vasiylik kengashi tomonidan **muassislar umumiy yig'ilishi taqdimnomasiga muvofiq** tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi;

Bolalar jamoat fondi ijro direksiyasining shtat birliklarini saqlash bilan bog'liq xarajatlar uning **shakllantirilgan mablag'lari hisobidan qoplab boriladi.**

5. Bolalar jamoat fondining **asosiy pul mablag'lari** quyidagilar hisobiga shakllantiriladi:

Davlat byudjeti hisobidan 2021-2022-yillarda mablag'larni amalda o'zlashtirilishiga qarab **100 milliard so'm** miqdoridagi beg'araz moliyaviy yordam;

jismoniy va yuridik shaxslarning **ixtiyoriy xayriyalari**;

davlat, xorijiy va xalqaro tashkilotlar, **chet davlatlar ajratadigan grantlar**;

**kraudfanding mexanizmlari** orqali kelib tushgan mablag'lar;

vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni tijorat banklari **depozitlariga joylashtirish**dan olingan daromadlar;

qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Moliya vazirligi (T.Ishmetov) Bolalar jamoat fondi Vasiylik kengashining (B.Musayev) asoslangan hisob-kitoblariga muvofiq Bolalar jamoat fondining asosiy vazifalarini amalga oshirish uchun zarur mablag'larning Davlat byudjeti parametrlarida nazarda tutilishini ta'minlasin.

6. Belgilab qo'yilsinki:

Bolalar jamoat fondiga **homiylik qilingan mablag'lar** soliq bazasini aniqlashda chegirib tashlanadigan xarajatlar jumlasiga kiritiladi;

Bolalar jamoat fondi **soliqlarning barcha turlaridan ozod etiladi** (ijtimoiy soliq bundan mustasno).

7. Belgilansinki, 2024-yil 1-yanvarga qadar davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar uchun belgilangan tartibda tasdiqlanadigan ro'yxatlar bo'yicha Bolalar jamoat fondi tomonidan olib kelinadigan dori vositalari, tibbiyot uskunalari va protezlash vositalari bojxona to'lovlaridan (qo'shilgan qiymat solig'i va bojxona rasmiylashtiruvi yig'imlaridan tashqari) ozod qilinadi.

8. Bolalar jamoat fondiga:

o'z mablag'larini oluvchilar kesimida, shu jumladan, **ularning shaxsini ochiqlamagan holda** yoshi, jinsi, ijtimoiy holati hamda moliyalashtirish manbai kesimida, shuningdek, Davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar va ularning ijrosi to'g'risidagi ma'lumotlarni hisobot oyining yakuni bilan keyingi **oyning 25-sanasiga qadar rasmiy veb-saytiga joylashtirib borish**;

o'z mablag'lari xarajatlari masalalarini muhokama qilishga **jamoatchilikni jalb etish**;

faoliyatining auditorlik tekshiruvi natijalari hisobotini keng jamoatchilikka, shu jumladan, **ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari, xalqaro va boshqa tashkilotlarga taqdim etib borish** tavsiya etilsin.

9. Bolalar jamoat fondi Vasiylik kengashi (B.Musayev):

**a) 2021-yil 20-oktabrga qadar** Bolalar jamoat fondi ijro direksiyasini yuqori malakali kadrlar bilan to'ldirish hamda Bolalar jamoat fondi ustavini tasdiqlash choralarini ko'rsin;

**b) 2021-yil 15-noyabrga qadar** manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda keng jamoatchilik fikrini va ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda, shu jumladan, quyidagilarni nazarda tutuvchi "Bolalarni qo'llab-quvvatlash jamoat fondi to'g'risida"gi qonun loyihasini **ishlab chiqsin va belgilangan tartibda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritilishini ta'minlasin**:

Bolalar jamoat fondining maqomi, faoliyati kafolatlari, **huquq va majburiyatlari**;

Bolalar jamoat fondining **davlat organlari va tashkilotlar bilan o'zaro hamkorligi**;

Bolalar jamoat fondi faoliyatini moliyaviy ta'minlash va **mablag'laridan foydalanish tartibi**;

Bolalar jamoat fondiga **homiylik qilgan shaxslarga imtiyoz va preferensiyalar berish** hamda uning faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish tartibi;

**v) 2021-yil 1-dekabrga qadar** Bolalar jamoat fondi hisobidan uning platformasi va yagona **elektron bazasi faoliyatini yo'lga qo'ysin** hamda Bolalar jamoat fondi faoliyati to'g'risidagi batafsil ma'lumotlarning **platformada joylashtirib borilishini** va ommaviy axborot vositalari orqali keng targ'ib etilishini ta'minlasin.

10. Toshkent shahar hokimligi (J.Artikxodjayev) Davlat aktivlarini boshqarish agentligi (A.Ortiqov) bilan birgalikda **bir oy muddatda** Bolalar jamoat fondini tekin foydalanish huquqi asosida uning faoliyatini **samarali tashkil etish uchun zarur sharoitlarga ega bo'lgan** maqbul binoga joylashtirsin.

11. Yoshlar ishlari agentligi Moliya vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

12. Mazkur qaror ijrosini samarali tashkil etishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib sog'liqni saqlash vaziri **A.M.Xadjibayev**, xalq ta'limi vaziri **Sh.X.Shermatov**, bandlik va mehnat munosabatlari vaziri **N.B.Xusanov** hamda moliya vaziri **T.A.Ishmetov** belgilansin.

Qaror ijrosini har chorakda muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari **B.A.Musayev** zimmasiga yuklansin.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga **2022-yil 1-martga** qadar axborot berilsin.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2021-yil 4-oktabr

E'TIROF

# BAXTLI BOLALIK MASKANI

***Maxsus jihozlangan maydonchada miriqib o'ynayotgan, qo'shiq kuylayotgan, she'r aytayotgan kichkintoylarni ko'rib kimning ham zavqi kelmaydi, deysiz. Bolajonlarning dam olishi, ovqatlanishi, turli rivojlantiruvchi mashqlar bilan shug'ullanishi uchun qulay bo'lgan keng, yorug', ozoda xonalarni aytmaysizmi?***



G'allaorol tumanidagi "Uchquncha" nomli 5-maktabgacha ta'lim muassasasida kichkintoylar uchun barcha shart-sharoitlar muhayyo etilgan. Tajribali tarbiyachi Umida Ishpulatova rahbarlik qilayotgan "Yulduzcha" guruhida bolalar qo'li bilan yasalgan, shaklan oddiy bo'lsa-da, chiroyli buyumlar, turli o'yinchoqlardan iborat tabiat burchagi tashkil etilgan. Konstitutsiyamiz, davlatimiz ramzlari, yo'l harakati qoidalariga oid rasmli, bezakli devoriy lavhalar bolajonlarni hayotga tayyorlashga xizmat qiladi.

Tinib-tinchimas tarbiyachi texnik vositalardan keng foydalanib, mashg'ulotlarning qiziqarli va ta'sirchanligini ta'minlamoqda. U yigirma besh yildan beri kichkintoylar tarbiyasi uchun tajriba va mahoratini ayamayotganligi bois hurmat-e'tibori baland. Guruhdagi Asila Bozorova, Dostonbek Ubaydullayev, Shohjahon Abdurahmonov, Maftuna Irisboyeva kabi iqtidorli tarbiyalanuvchilar har tomonlama faol, pedagog-tarbiyachining topshiriqlarini sidqidildan bajarishadi.

Guruhda musiqa, badiiy gimnastika, ingliz tili va shaxmat-shashka to'garaklari faoliyat yuritayapti. 2020-2021-o'quv yilida viloyatda o'tkazilgan shaxmat-shashka musobaqasida tarbiyalanuvchilarga ikkinchi o'rin nasib etdi. Badiiy gimnastika va milliy kurashda esa faxrli o'rinlarni egalladi.

Bolajonlarni sog'lom va ma'naviy yetuk qilib tarbiyalashda Umida opaning hamkasblaridan Shahnoza Bo'ronova, Viloyat Qurbonova, Gulchehra Xudoyqulova va muassasa boshlang'ich kasaba uyushmasi raisi Manzura Bo'kanovalarning munosib hissalari bor.

Erta bahorda har bir tarbiyachi va ishchi-texnik xodim "Mustaqilligimizning 30 yilligiga munosib tuhfa bo'lsin!" shiori ostida hovli va yo'laklarga daraxt ko'chatlari o'tkazishgan edi. Hozir nihollar ko'kka bo'y cho'zmoqda.

Baxtli bolalik maskanida 155 nafar kichkintoyning jismonan va ma'nan sog'lom, barkamol bo'lib voyaga yetishi uchun 17 nafar malakali pedagog va tarbiyachining har biri izlanishda ekanining shohidi bo'lasiz.

– Biz bolajonlarni aqliy va ijodiy mustaqil fikrlashga o'rgatish hamda maktab ta'limiga tayyorlashni asosiy maqsad qilib, bu yo'lda tinimsiz ishlayapmiz. Mehnatimizning samarasini tarbiyalanuvchilar kelajagida ko'rsak, o'zimizni baxtiyor his etamiz, — deydi 5-MTM mudirasi Shahlo Absattarova.

Yaqinda "Yulduzcha" guruhining jonkuyar tarbiyachisi Umida Ishpulatova O'zbekiston Pespublikasi Prezidentining farmoniga binoan "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi.

**Abdulla SAIDOV**



# ISHONCH, MAS'ULIYAT OLG'A UNDAYDI

*Vaqt hamisha oldinga qarab oshiqadi. Siz bilan bizni ham o'zi kabi shoshqin yashashga chorlayotgandek, go'yo. Agar imillasak, atrofimizdagi o'zgarishlarga befarq bo'lsak, ko'p narsalardan bebahra qoldiradi. Demak, nimaga erishish-u nimani boy berish o'zimizga bog'liq. Buni biror daqiqa unutishga aslo haqimiz yo'q.*

Istiqlol davri farzandlari ekanmiz, hozirgi buyuk o'zgarishlar va qutlug' yangilanishlar, avvalo, bizlar uchun naqadar faxrli. Axir shu beqiyos yaratuvchilik va bunyodkorlik hukm surgan Vatanda yashayapmiz, o'qiyapmiz, ishlayapmiz. Qo'llarimizni qayoqqa uzatsak, yetadi. Faqat uyg'oq va kurashchan bo'lib, mas'ulyatimizni chuqur his qilmog'imiz shart. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shu yil 30-iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan O'zbekiston yoshlari va talabalari forumida so'zlagan ma'ruzasida alohida to'xtaldi. "Azm-u shijoatli yoshlarimiz bilan birgalikda yangi O'zbekistonni, albatta, bunyod etamiz", deya qat'iy ishonch bilan ta'kidladi.

Darhaqiqat, yoshlar – katta kuch. Mamlakatning ertangi taraqqiyotiga poydevor qo'yishga qodir qavm. Chunki bizning erkin va farovon yurtimiz bor, doimo rag'bat berib turuvchi, qo'llab-quvvatlovchi yurtboshimiz bor, hamisha halollik va faollikni o'zlariga fazilat qilib olgan oliyhimmat yurtdoshlarimiz bor. Jamiyatimiz mazkur bir-biriga bog'langan uch halqasi tobora mustahkamlik kasb etayotir. Shundan ko'zlagan marralarimiz yuksakdan yuksak, olg'a tashlayotgan qadamlarimiz shaxdamdan shaxdam, orzu-umidlarimiz ushalishi barqaror-u bardavom.

Prezidentimiz rahnamoligida uchinchi Renessans davri poydevorini qo'yishga qattiq bel bog'lagan O'zbekiston yoshlari safida namanganliklarning o'ziga xos va mos o'rni bugun yorqin namoyon bo'lib turibdi. Davlatimiz rahbari forumda ilmsevar yigit-qizlarning erishayotgan yutuqlarini zo'r mamnuniyat bilan tilga olganida bir yo'la 5 ta xorijiy oliy o'quv yurtiga grant asosida muddatidan oldin qabul qilingan bizning Namangandagi Prezident maktabi o'quvchisi Robiyaxon Nabijonovaning nomini eshitganimda qalbim g'oyat to'lqinlanib ketgan edi.



"Men har gal sizlar bilan uchrashganimda "Ilmni qadrlang, ilmga intiling!" degan so'zlarni takrorlashdan aslo charchamayman" deya bejiz gapirmadilar. Axir bunday da'vat o'quvchi-yoshlarga o'ziga xos motivatsiya beradi-da. Yaqinda yurtimizdagi "El-yurt umidi" jamg'armasining 272 o'ringa mo'ljallangan 3-stipendiya uchun o'tkazilgan sinovlar natijasi e'lon qilindi. Quvonarlisi, "jamg'arma stipendiatligi"ga sazovor yoshlar safida Namangandagi Prezident maktabining ikki nafar bitiruvchi o'quvchisi borligi bizni faxrlantirib yubordi. Ya'ni Muhammadali Alimatov Amerika Qo'shma Shtatlarida, Saidbek Murodxo'jayev Buyuk Britaniya davlatida tahsil olish imkoniyatini qo'lga kiritdi. Bu yangi 2021-2022-o'quv yilidagi dastlabki muvaffaqiyatlarimiz. Bu kabi yutuqlarimiz ko'payishiga ishonamiz. Chunki pedagogik jamoamiz chuqur bilimga va yuqori malakaga ega, ham milliy, ham xorijiy mutaxassislardan tashkil topgan.

Men ham Namangan davlat universitetini tugallab, bu yerga ishga kelganimdan g'oyat g'ururlanaman. Dastlab, maktab direktorining ma'naviy-tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosari, yaqinda ijrochi direktor lavozimi zimmamga yuklandi.

Yangi o'quv yilining boshlanishiga bag'ishlangan tantanali yig'ilishda viloyatimiz hokimi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi senati a'zosi Shavkatjon Abdurazzoqov qatnashib, maktabimizdagi ta'lim-tarbiya jarayonlari bilan tanishdi, bolalarimizni "Bir million dasturchi" loyihasining faol ishtirokchisi bo'lishga rag'batlantirdilar.



**Oybek ZOKIROV,**
**Namangandagi Prezident maktabi ijrochi direktori**

**24 OKTABR 2021-YIL O'ZBEKISTON PREZIDENTI SAYLOVI**

# 9 MING 417 TA SAYLOV UCHASTKASI SAYLOV O'TKAZISHGA TAYYOR

***Markaziy saylov komissiyasining navbatdagi majlisida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazishda koronavirus infeksiyasi (COVID-19) tarqalishining oldini olish bo'yicha yo'riqnoma talablarining ijrosi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati boshlig'i o'rinbosari Botir Qurbonov ma'ruza qildi.***

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazishda koronavirus infeksiyasi (COVID-19) ning tarqalishi xavfini oldini olish to'g'risidagi yo'riqnoma 6 ta bob, 39 ta banddan iborat.

Yo'riqnomada koronavirus kasalligining oldini olish bo'yicha ijtimoiy masofani saqlash, binolarning kirish qismini vizual 2 metrdan belgilash, saylovga tashrif buyurganlar va kuzatuvchilar, shuningdek, barcha ishtirokchilar niqob taqish qoidasiga qat'iy amal qilishi nazarda tutilgan.

Shaxsiy gigiyenaga amal qilish uchun yetarlicha sharoit yaratish belgilangan. Shaxsiy himoya va dezinfeksiya vositalari, ya'ni bir marotabalik tibbiy yuz niqobi, bir marotabalik qo'lqop va qo'llar uchun dezinfeksiyalovchi antiseptik vositalari bilan barcha saylov uchastkalari va saylov okruglari ta'minlanadi.

Saylov uchun ajratilgan binolarda muntazam ravishda shamollatish va saylov kunidan oldin dezinfeksiya tadbirlarini o'tkazish, saylovchi va saylov komissiyasi a'zosi o'rtasidagi to'g'ridan to'g'ri muloqotni kamaytirish nazarda tutilgan.

"COVID-19" shifoxonalarida quyidagilarni nazarda tutuvchi saylov uchastkalarini tashkil etish bo'yicha sanitariya-epidemiologik talablar ishlab chiqildi. Bunda "COVID-19" shifoxonalariga "yopiq saylov uchastkasi" maqomi berildi. Mustaqil yurish imkoniyati bo'lgan bemorlar shifoxona hududida maxsus tayyorlangan xonada ovoz berishlari tashkillashtiriladi. Yotoq rejimidagi bemorlar maxsus mobil saylov qutilari orqali ovoz berishlari uyushtiriladi.

Hozirgi kunda saylov uchastkalar soni 10 ming 761 tani tashkil qilmoqda. Shu jumladan, bolalar bog'chasida 1 ta, umumiy ta'lim maktablarida 7 ming 563 ta, kollej-litseylarda 709 ta, davolash profilaktika muassasalarda 445 ta, tashkilot va muassasalarda 2 ming 43 ta.

Sanitariya-epidemiologiya xizmati xodimlari tomonidan har bir hudud kesimida belgilangan saylov uchastkalarida o'rganish rejasi ishlab chiqildi va 10 ming 761 ta o'rganilgan saylov uchastkasi bo'yicha saylovga tayyor uchastkalar soni 9 ming 417 tani tashkil qildi.

9 ming 925 ta saylov uchastkasida tibbiy punktlar tashkil etilgan bo'lib, 9 ming 443 ta saylov uchastkasi dori vositalar bilan ta'minlangan. Izolyator xonasi tashkil qilingan saylov uchastkalar soni 9 ming 611 tani tashkil etdi.

Saylov komissiya a'zolarini emlash jarayoni olib borilmoqda. Ya'ni 141 ming 791 ta saylov komissiyasi a'zolarini emlash rejalashtirilgan, rejaga asosan 132 ming 645 ta saylov komissiya a'zolari emlangan. Emlash jarayoni davom etmoqda.

**Nurillo NASRIYEV,**
**O'zA muxbiri**

# YOSHLAR VA QADRIYATLAR

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.



Jumladan, so'rov natijalari ma'naviy-axloqiy xususiyatlar va e'tiqodlar o'zbekistonliklarning asosiy qadriyatlari tarkibida markaziy o'rinni egallashini ko'rsatdi. Mamlakat aholisining ijtimoiy ongida an'anaviy ravishda erkin, ozod hayot va inson huquqlariga amal qilinishi, salomatlikni saqlash, baxtli oila qurish, farzandni dunyoga keltirish va tarbiyalash, o'qimishlilik, yaxshi ish va munosib moddiy ahvol, yuksak professionallik, tadbirkorlik, mustaqillik, mehnatsevarlik, mas'uliyat, barkamollik va yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashish kabi ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosiy qadriyatlar sifatida saqlanib qolmoqda.

Fuqarolarning fikriga ko'ra, har bir o'zbekistonlik hayotidagi asosiy qadriyat – oila, u inson uchun ishonchli tayanch, bitmas-tuganmas mehr-muhabbat, o'zaro hurmat, tushunish va sabr-toqat manbayi ekaniga respondentlarning ishonchi komil. Ularning ta'kidlashicha, mustahkam oilaviy munosabatlar yetuk, mas'uliyatli jamiyatning poydevori, yurtimiz baxtli kelajagining kafolatidir. Shuningdek, mamlakat aholisi uchun qarindoshlar va do'stlarga g'amxo'rlik, keksalarga yordam va yosh avlodni qo'llab-quvvatlash, ishonch, mehr-oqibat, sadoqat, o'zaro tushunish, oila a'zolariga hurmat ham asosiy qadriyatlar hisoblanadi.

Inson hayotining muhim qadriyati va boyligi sifatida oilaning barqarorligi zamonaviy jamiyat hayotining asosini tashkil etadi, mamlakatning demografik, iqtisodiy va ruhiy-ijtimoiy salomatligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Markaz tomonidan "Oila to'g'risida o'zbekistonliklarning fikri" mavzusida o'tkazilgan so'rov jarayonida inson hayotida oilaning roliga o'zbekistonliklar bergan baholarning umumiy tendensiyalari aniqlandi. So'rov natijalari o'zbekistonliklarga oilaning inson hayotidagi roliga tafovutli baho berish xosligini ko'rsatdi, unda oilaning naslni davom ettirish uchun zarurligi va insonning ruhiy-ijtimoiy to'kisligi uchun manba sifatidagi o'rni to'g'risidagi tasavvurlar asosiy hisoblanadi.

Yosh oilalarda munosabatlar muvaffaqiyatini ta'minlashda, so'ralganlarning fikriga ko'ra, qizlarning maishiy muammolarni mustaqil hal qila olishlari, xo'jalik yurita bilishlari, yigitlarning esa, moddiy mustaqil bo'lishlari, barqaror doimiy ishga yoki daromad manbasiga ega bo'lishlari kabi gender o'ziga xoslikni tavsiflovchi omillar juda muhim hisoblanadi.

So'rov natijalarining ko'rsatishicha, bugungi kunda o'zbekistonliklar moddiy mustaqillik va moliyaviy alohidalik bo'lishini, oila uchun alohida doimiy uy-joyning mavjudligi va bo'lg'usi juftlikning jismonan sog'lomligi hamda ma'nan bir-biriga mosligini oila qurish uchun asosiy shartlar deb hisoblaydilar. Ayni paytda O'zbekiston jamoatchiligi fikrida o'zaro muhabbat hamda ota-ona maslahati bilan bo'lg'usi kelin yoki kuyovni tanlash va nikohga kirish an'analari asosida qurilgan oila haqidagi tasavvurlar ustuvorlik qiladi.

Tadqiqotda o'zbekistonliklarning yoshlarni oila qurishga tayyorlashning zarurligi to'g'risidagi g'oyani qo'llab-quvvatlash tendensiyasi aniqlandi. So'rov ishtirokchilarining fikricha, oilaga tayyorlash jarayonida yoshlarning ota-onalari asosiy rol o'ynashi kerak.

Oiladagi nizolar sabablari haqidagi tasavvurlar moddiy qiyinchiliklar va oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunmovchiliklar bilan bog'liq. So'rovda yurtdoshlarimiz er-xotin, qaynona va kelin, ona bilan qiz, qaynota va kelin o'rtasidagi nizolarni eng ko'p uchraydigan nizolar sifatida ko'rsatishdi.

85,3 foiz ishtirokchi oilada er tomonidan ayolga nisbatan jismoniy zo'ravonlik qo'llashga yo'l qo'yib bo'lmaydi, degan fikrda. Lekin ishtirokchilarning asosiy ko'pchiligi tomonidan oilada zo'ravonlik muammosi qoralanishiga qaramasdan, har o'ninchi respondentning ayrim, alohida hollarda zo'ravonlik qo'llanilishi mumkin, deb hisoblashi tashvishli holdir. Respondentlar fikrining amaldagi ifodasi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi mutasaddilari ishtirokida o'tkazilgan matbuot anjumanida qayd qilindi: mamlakatda xotin-qizlarga nisbatan qayd etilgan tazyiq va zo'ravonlik holatlarining 73 foizi ularning oilalarida sodir etilgan.

Umuman olganda, so'rov natijalari oila ma'naviyatini mustahkamlashga yo'naltirilgan tadbirlar sifati, targ'ibot ishlarini yanada kuchaytirish va bu borada barcha davlat, nodavlat hamda jamoat tashkilotlarining imkoniyatidan keng foydalanish zaruriyatini ko'rsatdi. Bu boradagi sa'y-harakatlar va mavjud salohiyatning birlashtirilishi, shak-shubhasiz, oilaga jamiyat va davlatning e'tibori yanada kuchayishiga, uning barqaror rivojlanishiga, oila manfaatlarini huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy himoya qilishni kuchaytirish bo'yicha o'tkazilayotgan barcha ishlarni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarishga, pirovard natijada esa jamiyatimiz hayotining ruhi sog'lom va tetik bo'lib, uning iqtisodiy jihatdan taraqqiy etishiga imkon beradi.

Ma'naviyat – inson ichki dunyosining bamisoli bir ko'zgusi, u insonning ruhiy va aqliy olami ifodasi. Ma'naviyatga tamal toshi, avvalo, oilada qo'yiladi, so'ng hayotda umr davomida, insonni o'rab turgan muhit, yaqinlari ta'sirida, keyinchalik jamoada dunyoni o'rganish, oq-qorani ajratish, yaxshi-yomonning farqiga borish, ta'lim va tarbiya jarayonida, ideallarga intilish va ularga taqlid qilish, dunyoqarashni kengaytirish va hayotiy andozalarga moslashish ta'sirida bosqichma-bosqich shakllanib boradi. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy va boshqa sohalardagi hayotiy tasavvurlari, barcha sohalarda orttirgan bilimlari hamda hayotiy tajribasini o'z ichiga oladi va insonga butun umri davomida mayoq bo'ladi.

Hayotda ma'naviyatning o'rni hech qachon bo'sh bo'lmaydi, agar biz e'tiborsizroq bo'lsak, uni boshqalar to'ldiradi. Oddiy misol, uyali telefon hammani, ayniqsa, yoshlarni o'z to'riga tortib olgan o'rgimchakka aylandi. Aholining bir qismi iftixorimiz bo'lmish tilimizni buzib, yarim-yorti so'zlashga odatlandi. Ijtimoiy tarmoqlardagi izohlarni o'qib, buni yozayotgan odam qaysi maktabda o'qigan ekan, deb o'ylaysiz, beixtiyor. Boshqa tillardagi ayrim so'zlarning hech bir istisnosiz hamma joyda, hatto ayrim ommaviy axborot vositalaridagi rasmiy xabarlar orqali ham to'g'ridan-to'g'ri tilimizga kirib kelayotgani-chi?! Misol uchun, "lider" so'zi. Men zamonaviy axborot vositalarining hayotimizda tutgan o'rnini va tilimizning zamonaviy atamalar hisobiga boyib borishini inkor etish fikridan yiroqman. Internet, smartfon, ijtimoiy tarmoqlardan o'z o'rnida ongli ravishda foydalanish insonning rivojlanishiga, uning kasbiy o'sishi va ma'naviy kamolotiga, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi, jamiyat rivoji bilan birga til ham boyib boradi. Lekin me'yor degan narsa ham bor. Agar zamonaviy taraqqiyot vositalaridan ongli ravishda foydalanishni yoshlarga o'rgatmasak, o'z tilimizda muqobili bo'lgan so'zlarni ham boshqa tillardan indamay o'zlashtiraversak, chek-chegarani bilmasak, bu shiddatli dunyoda "ommaviy madaniyat"ning kishi bilmas xurujidan asl milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizni qanday saqlab qolamiz?!

Inson ma'naviyatini shakllantirishda kitob mutolaasining o'rni beqiyos. Markazimiz "Yoshlarning kitob mutolaasiga munosabati" mavzusida o'tkazgan so'rov natijalariga ko'ra, mutolaada Internetning roliga nisbatan umuman olganda ziddiyatli baho berilayotgani aniqlandi: respondentlarning qariyb yarmi (48,1 foiz) Internetdan kitoblarni qidirish va yuklab olish uchun manba sifatida foydalanadi. 56,5 foiz respondent yoshlarning ijtimoiy tarmoqlarga berilgani ularning kam kitob o'qiyotgani yoki umuman o'qmayotganining asosiy sababi, deb hisoblaydi. Bundan tashqari, kitob o'qishga qiziqadigan yoshlar sonining kamayishi respondentlar tomonidan yoshlarning pul topishga berilgani, ota-onalar farzandlarida kitob o'qishga qiziqish uyg'otish bilan shug'ullanmayotgani, yoshlar kitob o'qish zerikarli va qiziqarsiz mashg'ulot deb idrok etilayotgani bilan izohlanadi.

So'rov natijalarining ko'rsatishicha, yoshlar uchun kitob mutolaasi so'rov ishtirokchilarining qariyb uchdan biriga ma'naviy ozuqa manbasi, chorak qismiga umumiy dunyoqarash va savodxonlikni rivojlantirish usuli bo'lib xizmat qiladi, har besh nafar respondentdan biri mutolaadan rohatlansa, har oltinchi ishtirokchiga mutolaa qo'shimcha bilimlar olishga yordam beradi.

So'ralgan yoshlarning yarmi kitob o'qib turadi, ammo u yoki bu sababli, asosan vaqt yetishmasligiga ko'ra yoshlar kitob o'qimayotgani kabi tashvishli tendensiya ham ko'zga tashlanmoqda.

So'rov natijalariga ko'ra, yoshlar o'z bilim darajasini oshirish orqali salohiyatini yuksaltirishga ishonadi. Ularning fikriga ko'ra, oliy ma'lumot olish ish haqining yuqori darajasi, martaba o'sishi, moddiy farovonlik va moliyaviy barqarorlikni kafolatlaydi. Yoshlar mehnat bozorida raqobatbardosh, talabgir bo'lish uchun yaxshi ma'lumotga ega bo'lish kerakligini anglaydilar, ular hayotda muvaffaqiyatga, kasbiy faoliyatda yutuqlarga erishishga va jamiyatda o'zlarini ishonchli his etish hamda yangi maqsadlar sari harakatning yangi strategiyalarini yaratishga imkon beradigan ijtimoiy vosita – ta'lim ekanligini anglaydilar.

Yosh avlod vakillari o'rtasida o'tkazilgan so'rovda ular hayotdagi maqsadlariga qanday yo'llar bilan erishmoqchi ekani aniqlandi. Yoshlarning aksariyati – 76,4 foizi, o'z maqsadlariga bilim olish va o'z mehnati bilan erishishga intiladi. Bu, o'z navbatida, shaxsiy kuch va imkoniyatlarga ishonishga nisbatan ijobiy munosabatni belgilaydi.

O'tkazilgan so'rov natijalari mamlakat zamonaviy yoshlarining ijobiy kayfiyati va sobitqadamligini, ularning qadriyatlar yo'nalishlari axloqiy va ma'naviy tarkibiy qismlariga alohida e'tibori va intellektual va kasbiy o'sishga intilishini ta'kidlaydi. Yoshlarning davlat va jamiyat hayoti bilan hamnafasligi hamda davlat tomonidan yoshlar muammolariga alohida e'tibor, har tomonlama qo'llab-quvvatlash istiqbolda mamlakat, jamiyat va umuman millatning samarali va barqaror holatiga ishonchni ta'minlaydi. Yoshlarni ma'naviyatga oshno qilish yosh avlodda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tarbiyalashga xizmat qiladi. Millatning zakovati va ma'naviyatini rivojlantirish esa davlat ahamiyatiga molik vazifadir.

**Ulbo'sin ABDUMALIKOVA,**
**"Ijtimoiy fikr" respublika jamoatchilik fikrini o'rganish Markazi direktorining maslahatchisi**

**С 4 по 10 октября проводится Всемирная неделя космоса (World Space Week). Это ежегодный праздник, начало которого совпадает с днем запуска первого искусственного спутника Земли – 4 октября 1957 года. В рамках Недели организуются различные мероприятия, посвященные вопросам изучения внеземного пространства.**

ЗДЕСЬ СТОИТ ПОБЫВАТЬ

# Это просто космос!

***Макеты ракет и орбитальных станций, настоящий скафандр, карта звездного неба, информационные стенды… Музей, недавно открывшийся в Мирзачульском районе Джизакской области, знакомит посетителей с историей освоения космоса.***



Место для Музея космонавтики выбрано символическое – город Гагарин, административный центр Мирзачульского района. В 60-х годах прошлого века освоение Голодной степи сравнивали с покорением внеземного пространства, поэтому населенный пункт назвали именем первого космонавта (здесь ему установлен памятник). Еще одна причина в том, что Юрий Гагарин искренне любил наш солнечный край, часто приезжал сюда. Сдружился со многими общественными деятелями, молодежью, простыми людьми…

Музей распахнул двери в 2021-м, когда отмечается 60-летие со дня первого околоземного орбитального полета, открывшего новую эру в истории человечества. О создании экспозиции речь зашла два года назад, когда в Гагарин приезжали космонавты Владимир Джанибеков, Юрий Онуфриенко, Салижон Шарипов. После этого Мирзачульское районное отделение фонда «Махалла» и российский фонд «Защитники Отечества» подписали соответствующее соглашение.





«Музею предстоит стать важным научно-просветительским центром, где молодежь будет знакомиться с историей космонавтики и ее достижениями. При этом особое внимание уделено исследованиям Абу Райхана Беруни, Мирзо Улугбека и других выдающихся ученых, занимавшихся развитием астрономической науки», – сказал глава российской делегации Владимир Шаманов на церемонии открытия. Кстати, Герой РФ, председатель Госдумы по обороне сам родом из Мирзачульского района, окончил местную школу, затем Чирчикское военное училище. Внес большой вклад в создание музея, пообещал и в дальнейшем не оставлять его без внимания.




Кусочек космоса разместился в городском Дворце культуры. Переступая порог, посетители будто попадают на борт звездолета: сиренево-фиолетовое покрытие стен, подсветка. Особое впечатление производит тренировочный скафандр под стеклом. Информационные стенды знакомят с вехами космической одиссеи человечества, вкладом Узбекистана в эту сферу. Рассказывают о современной космонавтике, которая представлена не только пилотируемыми полетами, но и дистанционным зондированием Земли, спутниковой навигацией, связью. Молодежь с интересом изучает макеты планет Солнечной системы… В день открытия экспозиция пополнилась: Владимир Шаманов передал музею несколько фотографий Юрия Гагарина, Салижон Шарипов – узбекскую тюбетейку, которая побывала с ним над Землей.

«Я сфотографировалась с настоящими космонавтами! – не скрывает радости восьмилетняя Милана Скуратова, внучка Владимира Головенко – человека, который принимал участие в освоении Голодной степи и строительстве города Гагарина. – Меня и маму специально пригласили на праздник. Музей интересный, особенно скафандр понравился. Теперь обязательно буду читать книжки о космосе, хочу нарисовать рисунок. И одноклассникам расскажу – пусть обязательно здесь побывают!»

**Алина ЯГОДКИНА**

# афишка.UZ

## Микс искусства и истории

***Что:*** *выставка Dixit Algorizmi («Как говорил Аль-Хорезми»)*
***Где:*** *Центр современного искусства в г. Ташкенте*
***Когда:*** *4 октября – 15 ноября*

Междисциплинарная выставка исследует фундаментальные работы узбекского ученого и математика IX века Мухаммада ибн Мусы аль-Хорезми. Экспозиция включает произведения музыкантов, кинематографистов, архитекторов, дизайнеров, теоретиков, а также визуальных, концептуальных и текстильных художников. Посвящена она выводам Аль-Хорезми, подробно изложенным в его книге «Китаб аль-Джабр ва-аль-мукабала», написанной в 820 году н.э.




В рамках Dixit Algorizmi также запланированы беседы с художниками и экспертами, кинопоказы, дискуссии и другие мероприятия, которые позволят глубже изучить богатые открытия Аль-Хорезми и их влияние на нашу жизнь.

## Конференция, конкурсы, аукцион

***Что:*** *III Ташкентский фестиваль рекламы TAF!21*
***Где:*** *Hyatt Regency Tashkent*
***Когда:*** *9–10 октября*



Цель мероприятия – совершенствование предпринимательства и культуры потребления в республике, предотвращение недобросовестной конкуренции и дезинформации в сфере рекламы, создание здоровой конкурентной среды для участников рынка рекламных и маркетинговых услуг.

В программе – международная конференция, в которой примут участие ведущие эксперты из Узбекистана, России, Украины и Грузии. Состоятся показ ABC-шоу (коллекция лучшей мировой рекламы) и церемония награждения победителей конкурса TAF!21. В этом году в отборе участвуют 207 проектов от 112 брендов. Победителей в десяти номинациях определят члены экспертного жюри и потребители (проголосовать можно в Telegram-боте @TAF21bot).

Также пройдет благотворительный аукцион, средства от которого поступят в фонд Ezgu Amal.

## Все краски Гиждувана

***Что:*** *фестиваль «Вечерний Гиждуван»*
***Где:*** *Гиждуванский район Бухарской области*
***Когда:*** *первая суббота каждого месяца*

Начиная с октября в регионе проходит фестиваль, охватывающий такие направления, как искусство, литература, спорт, техническое творчество. Запланированы концертные программы, художественные выступления, выставки ремесленников из Гиждувана, ярмарки продукции молодых фермеров и предпринимателей. Районный центр содействия занятости организует ярмарки вакансий.

Авторы лучших работ получат памятные подарки хокима района.



# TAKOMILLASHGAN SAYLOV QONUNCHILIGI

## Prezidentlik saylovlarini ochiq, oshkora va xolis o‘tkazishga zamin yaratadi

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquqlari, erkinliklari va majburiyatlari, jamoat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining huquqiy asoslari hamda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining huquqiy maqomiga oid normalar bilan bir qatorda, saylovga oid tamoyil hamda qoida-talablar ham mustahkamlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 23-bobi «Saylov tizimi»ga bag‘ishlangan bo‘lib, mamlakatimiz saylov tizimiga oid muhim tamoyil va normalarni belgilaydi. Xususan, Konstitutsiyamizning 117-moddasida O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari saylash va saylanish huquqiga va har bir saylovchi bir ovozga ega ekani, shuningdek, ovoz berish huquqi, o‘z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi kafolatlangan.

Bundan tashqari, ushbu moddada saylov huquqining muhim prinsiplari mustahkamlangan bo‘lib, saylov jarayonlarini xalqaro saylov standartlari asosida ochiq-oshkora va demokratik tarzda o‘tkazishga imkon beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 117-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesiga, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov tegishincha ularning konstitutsiyaviy vakolat muddati tugaydigan yilda – oktabr oyi uchinchi o‘n kunligining birinchi yakshanbasida o‘tkaziladi. Ushbu konstitutsiyaviy normaning ahamiyati shundaki, birinchidan, mamlakatimizda bo‘ladigan saylovlar, shu jumladan, Prezident saylovini o‘tkazish muddatining aniq belgilanishi saylov jarayoni ishtirokchilarining muhim siyosiy kampaniyaga tayyorgarlik ko‘rishi va samarali ishtiroki uchun muhim hisoblanadi, ikkinchidan, davlat organlarining davriy saylovlar asosida xalq tomonidan shakllantirilishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Saylovga oid qonunchilik hujjatlari tizimida O‘zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi muhim ahamiyatga egadir. Saylov kodeksi loyihasi 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha «Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili» Davlat dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan. Kodeks loyihasini tayyorlash davomida, birinchidan, milliy qonunchiligimiz va saylov amaliyoti tahlil etildi, ikkinchidan, 20 dan ortiq xorijiy mamlakatlarning (Fransiya, Niderlandiya, Kanada, Italiya, Shvetsiya, Belgiya, Polsha, Albaniya, Belarus, Ozarbayjon va boshqalar) ilg‘or tajribasi o‘rganildi, uchinchidan, xalqaro tashkilotlarning saylovga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish bilan bog‘liq tavsiyalari inobatga olindi.





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING 23-BOBI «SAYLOV TIZIMI»GA BAG‘ISHLANGAN BO‘LIB, MAMLAKATIMIZ SAYLOV TIZIMIGA OID MUHIM TAMOYIL VA NORMALARNI BELGILAYDI. XUSUSAN, KONSTITUTSIYAMIZNING 117-MODDASIDA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING FUQAROLARI SAYLASH VA SAYLANISH HUQUQIGA VA HAR BIR SAYLOVCHI BIR OVOZGA EGA EKANI, SHUNINGDEK, OVOZ BERISH HUQUQI, O‘Z XOHISH-IRODASINI BILDIRISH TENGLIGI VA ERKINLIGI KAFOLATLANGAN.**

Saylov kodeksi turli saylovlarni o‘tkazish bilan bog‘liq 5 ta qonun va o‘ndan ortiq me’yoriy hujjatlar asosida qabul qilingan, o‘zida 30 dan ortiq yangi demokratik saylov qoida-talablarni mujassamlashtirgan yagona kodifikatsiyalashgan huquqiy hujjatdir. O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi 2019-yil 25-iyunda qabul qilingan bo‘lib, 18 ta bob va 103 ta moddadan iborat. Saylov kodeksining asosiy yangiliklari quyidagilarni tashkil etadi:

1) O‘zbekiston Respublikasi saylovchilarining yagona elektron ro‘yxatini shakllantirish tartibi joriy etildi;

2) muddatidan oldin ovoz berish va saylov kuni ovoz berish uchun yagona saylov byulletenini joriy etish orqali «saylov varaqasi» tushunchasi chiqarib tashlandi;

3) saylovlarni o‘tkazish yoki tashkil etishning boshqa masalalari yuzasidan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish tartibi kiritildi;

4) siyosiy partiyalar tomonidan imzo yig‘ish jarayonida saylovchilarning bir yoki bir nechta nomzodlarni yoxud partiyalarni qo‘llab-quvvatlab imzo qo‘yishi mumkinligi belgilandi;

5) ovoz berish jarayonida saylovchilarga bir nechta belgilardan (+, ✓, x) birini qo‘yish imkoniyati berildi;

6) saylov uchastkasida ovozlarni sanash bayonnomasining nusxasini 48 soatda darhol joylashtirish tartibi belgilandi;

7) ovoz berish tugaganidan keyin uchastka saylov komissiyasi tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar (ovozlarni sanab chiqish, bayonnoma tuzish va boshqa) ko‘rsatildi;

8) fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari tomonidan uchastka saylov komissiyasi a’zoligiga nomzodlar bo‘yicha takliflar kiritish tartibi belgilandi;

9) saylov komissiyasi a’zolari uchun yangi talablar o‘rnatilib, unga ko‘ra, nomzodlarning yaqin qarindoshlari va ishonchli vakillari, shuningdek, nomzodlarga bevosita bo‘ysunuvchi shaxslar saylov komissiyasining a’zolari bo‘lishi mumkin emasligi belgilandi;

10) nomzodlar ishonchli vakillarining O‘zbekiston Respublikasidagi safar xarajatlari saylovni o‘tkazish uchun ajratilgan mablag‘lar hisobidan to‘lanishi tartibi belgilandi;

11) ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan va uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning saylovda ishtirok etishini cheklovchi normalar chiqarib tashlandi;

12) saylovchilar ro‘yxatiga o‘zgartirishlar kiritish saylovga besh kun qolganida to‘xtatilishi belgilandi;

13) muddatidan oldin ovoz berish saylovga 3 kun qolganida tugashi belgilandi;

14) tashviqot ishlarini boshlashda barcha nomzodlar uchun yagona muddat, ya’ni ularni ro‘yxatga olish uchun belgilangan oxirgi kunning ertasidan e’tiboran boshlanishi ko‘rsatildi va boshqalar.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, saylov qonunchiligi tizimida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining qarorlari ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Saylov kodeksining 16-moddasiga asosan, Markaziy saylov komissiyasining qarorlari ochiq ovoz berish orqali, komissiya a’zolari umumiy sonining ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Markaziy saylov komissiyasining qarorlari qabul qilingan paytdan e’tiboran kuchga kiradi va Markaziy saylov komissiyasining rasmiy veb-saytida o‘sha kunning o‘zida, shuningdek, zarur bo‘lgan hollarda boshqa manbalarda e’lon qilinishi lozim. Markaziy saylov komissiyasining o‘z vakolatlari doirasida qabul qiladigan qarorlari okrug va uchastka saylov komissiyalari, davlat organlari, siyosiy partiyalar hamda boshqa jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar uchun majburiydir.

Markaziy saylov komissiyasining qarorlari bilan saylovga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazishga oid qoidalar, tashkiliy chora-tadbir va uslubiy ko‘rsatmalardan iborat nizom, yo‘riqnoma va boshqa hujjatlar tasdiqlanishi mumkin.

### SAYLOV QONUNCHILIGIGA KIRITILGAN O‘ZGARTISH VA QO‘SHIMCHALARNING MAZMUN-MOHIYATI

Mamlakatimizda saylov qonunchiligi boshqa sohalar kabi jamiyat va davlat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, izchil ravishda takomillashib bormoqda.

Mamlakatimizda o‘tkazilgan turli saylovlar tahlili, saylov jarayoni ishtirokchilarining takliflari va xalqaro kuzatuvchilarning tavsiyalari asosida 2021-yil 8-fevralda O‘RQ-670-son O‘zbekiston Respublikasining «Saylov qonunchiligi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi qonuni qabul qilindi.

Saylov qonunchiligiga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarning mazmun-mohiyati va asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 117-moddasining ikkinchi qismidagi «dekabr» degan so‘z «oktabr» degan so‘zga o‘zgartirildi. Mazkur o‘zgartishlarni qabul qilishda quyidagi milliy va xalqaro ahamiyatdagi omillarga tayanildi:

– saylovchilarning bildirgan xohish-istaklari;

– saylov komissiyalari a’zolari tomonidan bildirilgan takliflar;

– xorijiy mamlakatlarning saylovlarni o‘tkazish tajribasi;

– xalqaro kuzatuvchilarning tavsiyalari;

– saylov jarayoni ishtirokchilari uchun qulay sharoit yaratish zaruriyati va boshqalar.

2. YXHTning Demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byurosining tavsiyalari asosida O‘zbekiston Respublikasining 2004-yil 30-aprelda qabul qilingan «Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to‘g‘risida»gi qonunining 8-moddasiga siyosiy partiyalarning saylovda ishtirok etishini moliyalashtirish bilan bog‘liq quyidagi qoida-talablar kiritildi, unga ko‘ra, siyosiy partiyalarning saylovda ishtirok etishini moliyalashtirish uchun ajratiladigan davlat mablag‘larining bir nomzod hisobiga to‘g‘ri keladigan miqdori O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan belgilanadi. Siyosiy partiyaning saylovda ishtirok etishini moliyalashtirish uchun ajratiladigan davlat mablag‘lari shu partiyadan ko‘rsatilgan nomzodlar ro‘yxatga olinganidan keyin ro‘yxatga olingan nomzodlar soniga muvofiq hajmda siyosiy partiyaning hisob-kitob varag‘iga belgilangan tartibda o‘tkaziladi. Saylovda siyosiy partiyalarning ishtirok etishini moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag‘lar siyosiy partiya tomonidan: tashviqot olib borishga; nomzodlarning ishonchli vakillari va tashviqot o‘tkazish uchun jalb qilinadigan boshqa faollar ishini tashkil etishga; saylov kampaniyasini o‘tkazishga doir umumpartiyaviy tadbirlarga sarflanishi kerak. Mazkur norma orqali siyosiy partiyalarning saylovlarda qatnashishini moliyalashtirish va tegishli mablag‘larni maqsadli sarflash masalalari huquqiy jihatdan mustahkamlandi.

Shuningdek, mazkur qonun 16-moddasining ikkinchi qismi quyidagicha bayon etilgan: «Siyosiy partiya har yili qonunchilikda belgilangan muddatlarda hamda tartibda moliya organlariga, davlat soliq xizmati organlariga, O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi va Adliya vazirligiga hisobot davrida olingan hamda sarflangan moliyaviy va boshqa mablag‘lar to‘g‘risida moliyaviy hisobot taqdim etishi shart. Siyosiy partiya saylovda ishtirok etishini moliyalashtirish uchun o‘ziga ajratilgan davlat mablag‘lari yuzasidan saylov kunida oraliq hisobotni, saylov natijalari e’lon qilinganidan keyin esa yakuniy hisobotni O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasiga taqdim etadi». Siyosiy partiyalar moliyaviy hisobotlarini tegishli organlarga taqdim etishi hamda saylov kampaniyasi davrida Markaziy saylov komissiyasiga taqdim etishi saylov kampaniyasi davrida siyosiy partiyalar mablag‘lari sarflanishining shaffofligini ta’minlashga xizmat qiladi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 25-moddasi uchinchi qismiga «Uchastka saylov komissiyasi a’zolarining yarmidan ko‘pi bitta tashkilotdan tavsiya etilishi mumkin emas, bundan O‘zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakolatxonalari huzurida, harbiy qismlarda, sanatoriylarda va dam olish uylarida, kasalxonalarda hamda boshqa statsionar davolash muassasalarida, qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum qilish joylarida tashkil etilgan uchastka saylov komissiyalari mustasno» degan yangi norma kiritildi. Ushbu kiritilgan yangilikning ahamiyati shundaki, birinchidan, uchastka saylov komissiyasida qabul qilinadigan qarorlar kollegiallik asosda xolis qabul qilinishini ta’minlaydi, ikkinchidan, uchastka saylov komissiyasi a’zolari tomonidan saylovga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bilan bog‘liq chora-tadbirlarning shaffofligini ta’minlashga xizmat qiladi.

4. Saylov kodeksi «27-1-modda. Chet davlatlarda turgan fuqarolarni saylovchilar ro‘yxatlariga kiritish» nomli yangi modda bilan to‘ldirildi. Mazkur moddada quyidagi masalalarning huquqiy tartibi belgilandi:

saylovchilar ro‘yxatini tuzish tartibi; chet davlatlarda tuzilgan uchastka saylov komissiyalari fuqarolarni saylovchilarning ro‘yxati bilan tanishish joyi va vaqti to‘g‘risida xabardor qilishi; chet davlatlardagi fuqarolarning saylovchilar ro‘yxatiga kiritish uchun saylovdan 15 kun oldin o‘sha joydagi saylov uchastkasiga yozma shaklda yoki elektron tarzda Tashqi ishlar vazirligi veb-sayti orqali murojaat qilishi; chet davlatlardagi fuqarolarni saylovchilar ro‘yxatiga kiritish masalasini hal qilish; Tashqi ishlar vazirligiga saylovchilar ro‘yxatiga kiritilgan fuqarolar haqidagi ma’lumotni taqdim etish; Tashqi ishlar vazirligi ma’lumotni Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat personallashtirish markaziga «Saylovchilarning yagona elektron ro‘yxati»ga tuzatishlar uchun taqdim etadi. Shuni ta’kidlash lozimki, mazkur yangi moddada belgilangan qoidalar chet davlatlardagi O‘zbekiston fuqarolarining saylovda qatnashish huquqini kafolatlashga xizmat qiladi.



**SAYLOV KODEKSI TURLI SAYLOVLARNI O‘TKAZISH BILAN BOG‘LIQ 5 TA QONUN VA O‘NDAN ORTIQ ME’YORIY HUJJATLAR ASOSIDA QABUL QILINGAN, O‘ZIDA 30 DAN ORTIQ YANGI DEMOKRATIK SAYLOV QOIDA-TALABLARNI MUJASSAMLASHTIRGAN YAGONA KODIFIKATSIYALASHGAN HUQUQIY HUJJATDIR. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAYLOV KODEKSI 2019-YIL 25-IYUNDA QABUL QILINGAN BO‘LIB, 18 TA BOB VA 103 TA MODDADAN IBORAT.**

**24 OKTABR 2021-YIL O‘ZBEKISTON PREZIDENTI SAYLOVI**

5. Saylov kodeksining 32-moddasi ikkinchi qism bilan to‘ldirilib, bunda O‘zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakolatxonalari huzurida tuzilgan saylov uchastkalaridagi saylovchilar soni haqida O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar asosida Markaziy saylov komissiyasi saylov byulletenlarining tayyorlanishi va yetkazib berilishi ta’minlashi bilan bog‘liq masalalarning tartibi belgilandi.

6. Saylov kodeksining 33-moddasi ikkinchi qismiga kiritilgan yangiliklardan biri sifatida manfaatdor tashkilotlar o‘z kuzatuvchilari to‘g‘risida saylov komissiyalariga saylovdan kamida o‘n kun oldin ariza bilan ma’lum qilish muddati belgilandi. Ilgari mazkur muddat o‘n besh kunni tashkil etgan. Bundan tashqari, kuzatuvchilar harbiy qismlarda, qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylarida tuzilgan saylov uchastkalariga borishi haqida kamida uch kun oldin uchastka saylov komissiyasini xabardor qilishi kerakligi belgilandi.

7. Saylov kodeksining 42-moddasiga kiritilgan yangiliklarga asosan nomzod saylovga qadar vafot etgan, saylov huquqidan mahrum bo‘lgan yoxud nomzodlikdan chaqirib olingan taqdirda, nashr etilgan saylov byulletenlaridan ushbu nomzodning familiyasi, ismi va otasining ismi yozilgan satr o‘chiriladi. Muddatidan oldin ovoz berish jarayonida bunday nomzodni yoqlab berilgan ovozlar uchastka saylov komissiyalari tomonidan ovozlarni sanab chiqish chog‘ida haqiqiy emas deb topiladi. Ushbu to‘ldirishning ahamiyati juda muhim bo‘lib, unga ko‘ra, mazkur holatlarda byulletenlarni qaytadan chop etish va ortiqcha sarf-xarajatlar oldi olinadi.

8. YXHTning Demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byurosining tavsiyalari asosida Saylov kodeksining 44-moddasiga muvofiq, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlarining, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining, O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, boshqa harbiylashtirilgan bo‘linmalar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining, sudyalarning, saylov komissiyalari a’zolarining, diniy tashkilotlar professional xizmatchilarining saylovoldi tashviqotini olib borishi taqiqlandi. Mazkur qoida saylovoldi tashviqotining teng imkoniyatlar va shaffoflik asosida o‘tkazilishiga, siyosiy partiyalarning o‘z imkoniyatlaridan teng foydalanishlariga zamin yaratadi.

9. YXHTning Demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byurosining tavsiyalari asosida qonun bilan Saylov kodeksidan saylov komissiyalarining nomzodlarning saylovchilar bilan uchrashuvlarini tashkil etishga oid vazifasi chiqarib tashlandi. Ya’ni saylovoldi tashviqotini tashkil etish va o‘tkazish bevosita siyosiy partiyalarning ixtiyoriy ishi bo‘lgani sababli, saylov komissiyalarining bu ishga aralashishi ularga xos bo‘lmagan vazifa hisoblanadi (48-moddaning ikkinchi qismiga kiritilgan o‘zgartirish).

10. Saylovchining chet davlatda turgan joyida ovoz berish tartibini belgilovchi 56-1-modda kiritilib, ushbu norma bilan quyidagilar belgilandi: chet davlatlardagi saylovchilarning saylovda muddatidan oldin ovoz berishni turgan joyida o‘tkazishi mumkinligi; turgan joyida ovoz berish vaqti va joyi to‘g‘risida saylovchilar va kuzatuvchilarni OAV orqali xabardor qilish; ko‘chma ovoz berish qutisini ochish, byulletenlarni sanamasdan maxsus qopga joylash, surg‘uchlash va dalolatnoma tuzish hamda saylov kuni sanoq boshlangunga qadar saqlash.

11. Saylov kodeksining 99-moddasi to‘rtinchi va beshinchi qismlar bilan to‘ldirilib, bunda saylov komissiyalarining a’zolariga saylovga tayyorgarlik ko‘rish hamda uni o‘tkazishga doir xarajatlar smetasida ko‘rsatilgan miqdorda transport, ovqatlanish xarajatlarining va boshqa xarajatlarning o‘rnini qoplash maqsadida kompensatsiya to‘lanishi belgilandi. Shuningdek, saylov komissiyasining doimiy ish joyiga ega bo‘lmagan a’zolariga, shu jumladan, pensionerlarga mehnatga haq to‘lashning yagona tarif setkasiga muvofiq ish haqi to‘lanadi. Mazkur norma muhim ahamiyatga ega bo‘lib, birinchidan, okrug va uchastka saylov komissiyalari a’zolarining mehnatiga haq to‘lash orqali ularning faoliyati moddiy jihatdan rag‘batlantiriladi, ikkinchidan, bo‘lajak saylovlarga tayyorgarlik ko‘rish va demokratik tamoyillar asosida saylov jarayonlarini ochiq va oshkora o‘tkazilishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Shuni ta’kidlash lozimki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar asosida milliy saylov tizimi va qonunchiligi tobora takomillashib bormoqda. Xususan, 2021-yil 31-mayda «O‘zbekiston Respublikasining Saylov kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun mamlakatimizda o‘tkazilgan saylovlar tahlili va YXHTning Demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byurosining saylov tizimini takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalari bo‘yicha ishlab chiqilgan.

Ushbu qonun bilan Saylov kodeksining qator moddalariga quyidagi mazmundagi o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi:

– 14-, 20-, 22-, 101- va 102-moddalarida yuqori turuvchi saylov komissiyalarining vakolatlaridan quyi turuvchi saylov komissiyalarining harakatlari va qarorlari ustidan berilgan shikoyatlarni ko‘rib chiqish chiqarib tashlandi;

– 21-moddada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o‘tkazish bo‘yicha okrug saylov komissiyasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan saylovga kamida yetmish kun qolganida komissiya raisi, rais o‘rinbosari, kotibi va sakkiz – o‘n sakkiz nafar komissiya a’zosidan iborat tarkibda tuziladi;

– 31-moddadan saylov byulletenida nomzodning egallab turgan lavozimi (mashg‘ulotining turi), ish joyi ko‘rsatilishi haqidagi norma chiqarib tashlandi;

– 38-moddada saylovlarda siyosiy partiya yoki nomzodlarni qo‘llab-quvvatlab imzo qo‘yishda fuqarolar pasport bilan bir qatorda, identifikatsiya kartasi orqali ham shaxsini tasdiqlashi mumkinligi belgilandi;

– 48-moddada saylovchilar bilan uchrashuvlar kabi ommaviy tadbirlar ularning o‘tkazilishi joyi va vaqti haqida tuman (shahar) hokimliklari kamida uch kun oldin yozma ravishda xabardor qilingan holda o‘tkazilishi, bunda ushbu ommaviy tadbirlarni o‘tkazish uchun ruxsatnoma talab etilmasligi kabi normalar belgilandi.

Saylov qonunchiligiga kiritilgan yangiliklar muhim ahamiyatga ega bo‘lib, birinchidan, saylovchilar, saylov tashkilotchilari, siyosiy partiyalar va ularning nomzodlari, mahalliy va xalqaro kuzatuvchilar hamda ommaviy axborot vositalari vakillarining saylovlarda samarali ishtirok etishini ta’minlaydi, ikkinchidan, milliy saylov qonunchiligimizni umume’tirof etilgan xalqaro saylov standartlari asosida yanada takomillashtirishga va saylov jarayonlari ishtirokchilarining saylovga oid huquqlarini kafolatlashga xizmat qiladi.

*Выбирая профессию, старшеклассники приглядываются к своим близким, к окружающим, советуются с наставниками, черпают сведения из книг и фильмов. Найдешь работу по душе – сумеешь принести больше пользы людям, отдавая любимому делу энергию и знания, находясь в постоянном поиске. Абитуриент становится студентом – и опять перед ним выбор: полностью, ни на что не отвлекаясь, посвятить себя учебе или совмещать постижение специальных предметов с общественной активностью?*

*Наш собеседник 26-летний наманганец Фарход ТОШТЕМИРОВ, волонтер ВОЗ и благотворительного фонда Ezgu Amal, в недалеком прошлом руководитель отдела науки в совете студентов Ташкентского педиатрического медицинского института, соорганизатор научной игры Geek-freak, убежден, что формирование личности зависит от гармоничного сочетания многих факторов.*



НАША ГОСТИНАЯ

# За нераскрытыми тайнами

**– Так как самая прекрасная музыка для человека, по определению Дейла Карнеги, его имя, с него и начнем. С героем великого Навои оно как-то связано?**

– Безусловно. Тетя всегда напоминает, что ей поручили почетную роль наречения. Она как раз в то время перечитывала любимый дастан. Конечно, хотелось бы обладать всеми качествами известного героя: ведь он преуспел в науках и ремеслах. Даже если б имя и было дано безотносительно к «Хамсе», мне бы так думать окружение не позволило. Сотни раз приходилось слышать: «Фарход, где твоя Ширин?» Пока моя Ширин – это медицина.

**– Были ли у вас метания в выборе профессии, когда не могли определиться, что более привлекательно и интересно?**

– Всегда интересовался, как устроен организм человека и как он функционирует. И лучший вариант, поддерживающий этот интерес, – непосредственная связь с медициной. На земле много нераскрытых тайн. Можно сыграть важную роль в их разгадывании. Наше здоровье, физическое и духовное, – опора биосферы.

Так пришел к выводу, что причастность к поддержке ЗОЖ – один из основных смыслов жизни. В моей семье вряд ли могло быть по-другому. Кругом одни медики, только папа – военнослужащий. Ребенок с детства находится в атмосфере белых халатов – подсознательно потянется за ними. Так и я. Со школьной скамьи представлял себя врачом.

Окончил Наманганский медицинский колледж, получил специальность фармацевта, а вот в институт с первого раза поступить не удалось. Иногда при неудаче у ребят опускаются руки, они в следующий раз меняют вуз. Моей победной попыткой стала третья, о чем ничуть не жалею. Не считаю годы потерянными, потому что все происходит так, как положено. Всему свое время. Поступи я в первый или во второй год, не приобрел бы такого опыта. Стараюсь извлекать пользу из любой ситуации. Кстати, во время учебы три года работал в аптеке провизором.

**– Есть ли такие врачи с большой буквы, которые служат для вас примером?**

– Мой дедушка Тоштемир. Хирург от Бога. За его плечами более трех тысяч операций. Известный человек в районе. По фамилии уже догадываются, чей я внук. Хочу равняться на него и быть достойным его светлого имени.

Из зарубежных врачей Бен Голдакр, автор прекрасных книг по эпидемиологии.

**– Как относитесь к наследию врачевателей древности?**

– Удивляюсь их умениям при достаточно ограниченных ресурсах. Представляю, как бы они могли развернуться с развитием медицины. «Канон врачебной науки» Ибн Сино – книга, которая никогда не будет забыта. При любом уровне цивилизации.

**– Общественной работой начали заниматься в школе или в колледже? Или в институте особая аура активности и никак не получится остаться в стороне?**

– У нас в Янгикурганском районе самой «популярной» общественной работой в то время был сбор хлопка, а потом приходилось наверстывать упущенное. В вузе четкие ориентиры: каждый ставит перед собой цель – иметь хорошую теоретическую базу и профессиональные навыки. Студенты ищут свои пути достижения этой цели.

Сначала приглядывался, анализировал... Медицина как наука необъятна, ее сложно подгонять под какие-то рамки, потому что все взаимосвязано. Очевидно одно: того, что преподают, точно не хватит. Необходимо самим искать, читать, узнавать из других источников. Поэтому приходилось обращаться к специальной литературе (в том числе зарубежной) и статьям о современных исследованиях. В потоке постоянно обновляющейся информации осознаешь, как много может пройти мимо, если серьезно не работать над собой. Упустить легко, а тот багаж, без которого нет хорошего врача, пострадает.

Открыв для себя не академический, а более связанный с реальностью мир медицины, хотелось делиться с другими. Какие это были споры! К тому же интернет дал дорогу и для распространения лженаучных взглядов. Так я начал с интересом изучать мифы и заблуждения в науке, анализировать их опровержения с точки зрения доказательной медицины.

Несколько ребят во главе с Иззатулло Собитовым организовали сообщество «Совет студентов», где будущие медики с энтузиазмом взялись за продвижение молодежных инициатив, создание мотивации в учебе. Так мое желание просвещать нашло отклик. Мы быстро разработали несколько проектов, целью которых было ознакомление студенческой аудитории с интересными научными материалами. Это цикл лекций, посвященный фундаментальным предметам, проект «Борьба с лженаукой», где рассказывали о гомеопатии, мастер-классы по написанию статей.

Еще создали с Иззатулло научно-популярную игру Geek-freak. Суть ее такова: несколько спикеров в течение семи минут выступают со своими научными темами, представляя их зрителям интересно, понятно и с некоторой долей юмора. Победителя определяют по интенсивности аплодисментов. Студентам понравилось.

Ораторские способности ребята развивали в процессе дебатов, где нужно было уметь защищать свою точку зрения. Все это раскрывало потенциал участников, учило думать критично, относиться ко многим вещам с некоторой долей скепсиса, анализировать и конструктивно мыслить.

**– Чем стала для вас волонтерская деятельность по линии ВОЗ?**

– Огромным опытом. Познакомила меня с чудесными, добрыми и искренними людьми. Пандемия коронавируса показала, насколько хрупка человеческая жизнь, если не воспринимать сложившуюся ситуацию серьезно. Она же продемонстрировала, насколько люди могут сплотиться ради одной идеи, безвозмездно помочь другим, искренне желая сделать благое дело.

Я оказался в такой компании обычных, но смелых, сильных и добрых ребят: это студенты-медики, преподаватель, фотограф и даже руководитель отдела в Министерстве инновационного развития... Все ради одной цели помочь. И как можно больше!

Лето 2020 года, разгар пандемии, карантинные ограничения, везде все закрыто, дорожное движение приостановлено, рост заболеваемости, колоссальная нагрузка для Минздрава и ковидных больниц. Людям не хватает кислорода. Дыхание, естественная функция организма, становится проблемой. Коварный коронавирус усложнял, затруднял этот процесс, и больные нуждались в дополнительной поддержке, чтоб дышать. Инициативная группа решила безвозмездно раздать кислородные концентраторы.



(Окончание на 9-й стр.)

# За нераскрытыми тайнами

*(Окончание. Начало на 8-й стр.)*



ННО «Ezgu Amal» берется за это совместно с Ассоциацией студентов-медиков. Осуществляется акция «Дыши, Узбекистан!», волонтеры развозят по домам оксигенераторы, по сути, «доставляя жизнь» в поврежденные вирусом легкие. Так мы проработали полтора месяца и помогли более чем 400 семьям, параллельно обретя для себя новую семью из волонтеров.

Запомнилось участие в проекте ВОЗ по антибиотикорезистентности «Всемирная неделя правильного использования противомикробных препаратов в Узбекистане». Ежегодная тематическая неделя призвана повышать осведомленность о глобальной проблеме устойчивости к противомикробным препаратам и побуждать широкую общественность, работников здравоохранения и политиков внедрять передовые методы, позволяющие остановить дальнейшее появление и распространение инфекций, которые из-за неграмотного лечения «привыкают» к лекарственным препаратам и становятся все более опасными для человека.



Вроде бы парадокс, однако неуязвимыми возбудителей инфекций помогают сделать и наши многочисленные аптеки. Большинство препаратов отпускается без рецепта врача. В результате многие сами ставят себе диагнозы по симптомам, сами назначают терапию, копируя рецепты знакомых и не беря во внимание, что каждый случай индивидуален и требует особого подхода. Есть и такие, которые спрашивают у фармацевтов, чем им нужно лечиться. И ведь часто получают советы. Антибиотики – серьезное лекарственное средство, которое применяется строго по назначению по часам определенное количество дней. Любые нарушения ведут к повышению сопротивляемости микроорганизмов. Невежество делает их более сильными, непобедимыми. А между тем источники для производства новых антибиотиков на земле исчерпаны. Остался океан. По прогнозам ученых, человечество может оказаться бессильным перед нашествием возбудителей многих болезней, где показана антибиотикотерапия. Не за горами время, когда к летальному исходу будет способна привести крохотная загноившаяся ранка.

Санпросветработу проводили в Ташкенте и Самарканде, постарались расширить охват населения. Организовали уроки здоровья для школьников, выступали перед студентами, жителями махаллей, работниками производств.

**– За самоотверженный труд в период пандемии вы в составе группы волонтеров награждены нагрудным знаком «Мехр-саховат».**

– Он учрежден Президентом нашей республики и вручается за мужество и отвагу, проявленные в преодолении испытаний, которые пришлось пережить нашему народу в период пандемии, при устранении последствий различных стихийных бедствий и чрезвычайных ситуаций. Не ожидал, что мы, маленькая команда, окажемся в числе награжденных. Получить такую награду – огромная честь. Смотрел на своих товарищей и думал: какой силой обладают люди, вместе делающие общее дело, имеющие благородную цель и не думающие о собственных интересах! Беда объединяет, и она отступает, когда встречается со слаженным сопротивлением.

**– Вы окончили Ташкентский педиатрический медицинский институт. Впереди – ординатура, новые знания, новый опыт. Какими принципами руководствуетесь, готовясь стать высококвалифицированным специалистом?**



– Не задумывался о формулировке принципов лично для себя, однако следующих позиций придерживаюсь:

* *Делай добро, ведь это очень легко и просто. От этого еще получаешь удовольствие.*

* *Позитивно относись к жизни, людям и окружающему миру. На негативе проблемы не решишь.*

* *Руководствуйся основным принципом врача: «Не навреди!»*

* *Постоянно развивайся, совершенствуйся, ищи ответы на то, что недостаточно изучено.*

Быть врачом – значит отвечать за жизни других, нести здоровье. Где есть здоровье, там и гармония, и счастье.

**– По какой специализации будете проходить ординатуру?**

– С четвертого курса мечтал стать детским неврологом, так как это одна из самых проблемных (постановка диагноза, методы лечения) сфер и наблюдается дефицит специалистов. Очень хотелось отучиться за рубежом и потом вернуться для дальнейшего развития детской неврологии. Мои планы осуществились: по линии Россотрудничества поступил в ординатуру по специальности «Неврология» в российские вузы. Однако суждено было стать героем другой истории: получил предложение из Научно-исследовательского института гематологии и переливания крови – отучиться в Санкт-Петербурге на онкогематолога и по окончании заняться повышением уровня этой перспективной сферы в Узбекистане. У нас в стране только внедряют пересадку стволовых клеток костного мозга у гематологических больных, и мне захотелось быть причастным к этому знаменательному событию. Не думаю, что изменяю мечте. Ведь главное назначение врача – оказывать действенную помощь пациентам.

Доктор – это не автомат, ставящий диагнозы и назначающий лечение. Продумал и культурную программу в городе на Неве с его бесчисленными музеями и памятниками архитектуры.

**– Что в вашей жизни изменила пандемия. В 2020-м ординатура в другом государстве не представлялась возможной.**

– Пандемия показала ценность человеческой жизни, что мы должны сильнее дорожить родными и близкими. Не откладывать на потом добрые слова и поступки, помогать от всего сердца. И не расслабляться, когда речь идет о профессиональном и личностном становлении. Ведь мы врачи, для которых важны прочные знания и умение сопереживать, готовность бороться за здоровье каждого человека.

Пандемия научила жить в карантинных ограничениях, используя резервы времени для самосовершенствования. Встретил близких по духу людей, определил для себя новые цели и возможности. Мир столкнулся с испытанием, и это имеет свой смысл для каждого.

**– Какие советы по профилактике коронавирусной инфекции дадите нашим читателям?**

– Ничего нового не скажу, но, к сожалению, приходится повторять это снова и снова. Необходимо носить маски, держать дистанцию, соблюдать гигиенические нормы, так как, несмотря на все протоколы, лекарства и адекватного лечения от коронавируса еще не разработано. Он долго напоминает о себе тем, кто уже оказался на больничной койке.

Обязательно вакцинируйтесь, ибо это пока что единственный путь обезопасить себя и родных. Многие боятся побочных эффектов и последствий, но мировая медицина и опыт показали большую эффективность и мизерные последствия от вакцин. Коронавирус страшнее, когда люди, лишенные возможности дышать, подключенные к ИВЛ, ждут решения своей участи в реанимационных отделениях. Те, кто пережил ужасы тяжелого течения болезни, рассказывают о своем состоянии: «Я побывал в аду». Вакцинирование – самое верное решение.

**– Представьте, что спешите на судьбоносную встречу. Счет идет на минуты. Человеку у вас на глазах становится плохо. Если не помочь, случится непоправимое. Как поступите?**

– Предоставлю судьбе возможность внести коррективы. То, что должно случиться, все равно со мной рано или поздно произойдет. Бросить человека не смогу при любом раскладе. Остановлюсь, помогу, сделаю все, что в моих силах.

**– Кем видите себя лет через 10–20?**

– Одним из ведущих специалистов своего направления. Врачом в вечном поиске.

Беседовала
**Людмила ПОЛОНСКАЯ**

IBRAT



***Bolaning begonasi bo'lmaydi, deydi dono xalqimiz. Oramizda ota-onasidan ayrilgan bolalarga mehr-muruvvat ko'rsatib, ularni o'z bag'riga olyotgan oilalar soni tobora ko'payib bormoqda. Ana shunday oilalardan bir Farg'ona viloyati Qo'shtepa tumanida yashovchi Zokirovlar oilasidir.***

# Millat ibrati



Bu oila Marg'ilon shahrida joylashgan 1-Mehribonlik uyidan 5 nafar o'g'il-qizni tarbiyasiga olib, "Mustaqil oilam — kelajagim poydevori" nomli Oilaviy bolalar uyi faoliyatini yo'lga qo'ydi.

Shu bilan Farg'ona viloyatida bunday oilaviy bolalar uylari soni 5 ta yetdi. Natijada 76 nafar mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisi oila sharoitiga va 11 nafar bola o'z ota-onasi bag'riga qaytarildi.

***

Milliy gvardiyaning Namangan viloyati bo'yicha boshqarmasi harbiy xizmatchisi B.Qo'ldoshev Namangan shahridagi 26-Mehribonlik uyidan besh nafar bolani o'z qaramog'iga olib, oilaviy bolalar uyi faoliyatini yo'lga qo'ydi.

Eslatib o'tamiz, bu mehribonlik uyidan shu kunga qadar 3 nafar o'g'il-qiz o'z oilasiga qaytarilib, 22 nafar tarbiyalanuvchi ota-ona mehriga va oila muhitidagi sharoitga ega bo'ldi.

*www.milliygvardiya.uz saytidan olindi.*



JARAYON

# ODDIY ODAMLAR BUGUNGI KUNDA BO'LAYOTGAN O'ZGARISHLARNI SEZISHI KERAK

***Kuz fasli boshlanishi bilan issiqlik ta'minoti obyektlari va uskunalarini hamda turar-joylar va ijtimoiy soha obyektlarini kuz-qish mavsumiga puxta qilib tayyorlash ishlari boshlanib ketadi. Zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir paytda har bir rahbardan tortib oddiy xodimgacha kreativ fikrlash, vaziyat va muammolarga o'zgacha yondashuv talab etilmoqda.***

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, aholiga uzluksiz va sifatli ichimlik suvi yetkazib berish uchun bir kunda 2,1 million kVt elektr energiyasi sarf qilinadi. Ichimlik suvini zararsizlantirish uchun bir kunda 2 tonna xlor, 1,8 tonna gipoxlorid va 4,5 tonna koagulyantlar va 10 tonnadan ortiq yonilg'i-moylash mahsulotlari ishlatiladi.

Bundan tashqari, har kuni yuzaga kelayotgan avariyalarni bartaraf qilishga ham muayyan xarajatlar talab etiladi. Shu sababdan, to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirmaslik qarzdorlikning keskin oshishi va ta'minlovchi korxonalarning moliyaviy-iqtisodiy holati zaiflashishiga olib kelishi mumkin, bu esa aholiga uzluksiz ichimlik suvi yetkazib berilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Aholidan-ku kommunal to'lovlarni o'z vaqtida undirishning barcha choralari ko'rilmoqda. Ammo, sohadagi amalga oshirilayotgan ishlar sifati qoniqarlimi?

Joriy yilda markaziy va mahalliy qozonxonalarni hamda issiqlik tarmoqlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish ishlarini amalga oshirish uchun jami 23,1 milliard so'm markazlashgan mablag'lar ajratilgan. Mazkur mablag'lar hisobidan 2021-yilda 56 ta obyektda qurilish-ta'mirlash ishlarini amalga oshirish rejalashtirilgan. Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Toshkent, Farg'ona, Xorazm viloyatlarida rejalashtirilgan obyektlar doirasida ekspertiza xulosalari olinib, pudrat tashkilotlari aniqlangan, qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirilmoqda. Toshkent shahrida esa rejalashtirilgan obyektlar doirasida qurilish-montaj ishlari yakuniga yetkazilib, obyektlar foydalanishga topshirilgan.

Afsuski, soha hali muammolardan xoli emas.

O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi huzuridagi ko'p xonadonli uy-joy fondidan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi joylardagi shirkatlar tomonidan amalga oshirilgan ishlar sifati va unga yo'naltirilgan mablag'larning maqsadli sarflanganligiga oid faoliyatini o'rganish jarayonida qator qonunbuzarlik holatlarini aniqladi.

Vazirlik matbuot xizmati tomonidan taqdim qilingan ma'lumotlarga ko'ra, mulkdorlardan yig'ilgan majburiy badal pullari maqsadsiz ishlatilganligi bo'yicha 49 ta holatda, jami 1 milliard 809,5 million so'm mablag' talon-taroj qilingan. Bu borada Toshkent viloyati 950,1 million so'm bilan "yetakchi"lik qilmoqda.

Shuningdek, Navoiy viloyatida 5 ta holat bo'yicha, jami 449,4 million so'm, Farg'ona viloyatida 4 ta holat bo'yicha, jami 300,1 million so'm, Qashqadaryo viloyatida 3 ta holat bo'yicha, jami 67,9 million so'm hamda Buxoro viloyatida 10 ta holat bo'yicha, jami 42,1 million so'm maqsadsiz ishlatilgan.

Aniqlangan qonunbuzilish holatlari yuzasidan to'plangan materiallar huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga taqdim etildi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ayrim hududlarda noqonuniy xarajatlar va ortiqcha to'lovlarning asosiy qismi uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish, xalq ta'limi, obodonlashtirish sohalariga to'g'ri keladi. Aholini o'ylantirayotgan mana shu kabi mavjud muammolarni bartaraf etish, turmush farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi. Zero, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, oddiy odamlar bugungi kunda bo'layotgan o'zgarishlarni sezishi kerak. Ular ertaga emas, bugun yaxshi yashashni istaydi. Ularga bugun yaxshi sharoit yaratib berishimiz kerak.

**Muhayyo TOSHQORAYEVA,**
**O'zA muxbiri**

> "Ilm o'rganing, ilm uchun sakinat va viqorni ham o'rganing. Va sizlarga ilm o'rgatayotganlarga tavoze' bilan o'zingizni past tuting!"
>
> Hadisdan.




# Ustozim – faxrim!

Muqaddas dinimizga ko'ra, ilm o'rganish har bir muslim va muslima uchun farzdir. Demakki, hayotimizning ajralmas qismi ilm bilan bog'liq. Biz tarbiyani ota-onamizdan, ilmni esa ustoz-murabbiylardan olamiz. Ular misoli sham singari hayot yo'llarimizni yoritib boradi. Ustozlar ta'rifida tillarimiz eng chiroyli so'zlarni shaylaydi.

Men, yosh jurnalist sifatida ustozlarimni bugungi yutuqlarimning asosiy sababchisi deb bilaman. Ular bilimlarim poydevori, qurolim – qalamim siyohi, g'oyalarim generatoridir.

Biz ustozlardan olgan bilimlarimiz bilan maqsadlarimizga yaqinlashib boramiz va hamisha ularga tayanamiz. Men ham yangi loyihalar boshlash oldidan ustozim duosi va maslahatlariga quloq tutaman. Mening ustozim ko'pchilik jurnalistlarning ustozi – Sherzodxon Qudratxo'ja.

Ustoz, biz sizning shogirdingiz ekanimizdan qanchalik faxrlansak, siz ham shogirdlaringiz muvaffaqiyatlaridan g'ururlanib yuring. Sizga munosib bo'lish, ishonchingizni oqlash nasib etsin.

**Nafosat DAVLATOVA**

# Aytolmaganlarim

## (Zubayda Murodovaga)



***"Bog'chada biz bilan turli o'yinlar o'ynab, yangi o'yinchoqlar olib keladigan bog'cha opamizni hammamiz yaxshi ko'rardik. Ulg'ayib, maktabga chiqayotganda "O'qituvchi qanday bo'larkan, bizlarni urishsaya?!", degan qo'rquv deyarli barchaning ko'nglidan o'tgan. Negaki, bog'cha bolalariga beriladigan rasmli kitoblarda ular jiddiy qiyofada tasvirlanadi.***

**BESH YOSH, BESH BAHO VA KICHKINA QIZCHA**

Olti yoshga to'lmay opalarimga ergashib maktabga borardim. Ular kabi o'qishni, yozishni, rasm chizishni va besh baho olishni xohlardim. Lekin har gal kichikligim sabab bularga erisholmasdim. Sabrsizligim, qiziquvchanligim va gapdonligim meni olti yoshimda o'quvchi qilib qo'ydi. Barcha singari formada maktabga chiqdim. "Maktab", "o'qituvchi" degan so'zlarning mohiyatini hali to'la anglamagan kichkina qizcha edim.

Menga xayrixohlik bilan qarab, ko'nglimda ishonchning murg'ak kurtaklarini uyg'otgan va uni kelajak orzularига payvand aylagan birinchi ustozim! Maktabga qatnay boshlaganimga bir hafta bo'lmay topshiriqlaringizdan charchadim. Soatlab partada o'tirishdan zerikdim. Bog'chadagi kabi istagan paytimda do'stlarim bilan o'ynashni, o'yinchoqlar talashishni qo'msadim. Mendagi loqaydlik, dangasalikni ko'rib, qo'limga rasmli kitob tutqazdingiz. Rasm chizishga, uni bo'yashga juda qiziqardim. Siz esa bundan unumli foydalanib, yana darsga qiziqtira oldingiz. Ertak qahramonlarini ranglarga ajratib bo'yash, ular haqida bilganlarimni gapirib berishni vazifa qilib topshirdingiz.

Sinfdoshlarim harf tanib, yozishni o'rganayotganda, men topshirig'ingizni bajarishga harakat qildim, siz mendagi bu qiziqishni ko'ra oldingiz. Sababi, yozishni ham eplolmaydigan, tengdoshiga umid bilan tikilgan qorako'zlarga kitobdagi suratlarga qarab ertak aytish, voqealarni qiziqarliroq qilib yetkazish oson emasligini tushundim. Harf tanimasligim menga pand berganini angladim. Sinfdoshlarimdan ortda qolmaslik uchun hijjalab o'qishni, harflarni chiroyli va bexato yozishni o'rgandim. Dilga dalda bo'lguvchi mehrli nigoh-la bergan saboqlaringiz bois ko'p o'tmay, sinfning eng a'lochi o'quvchilari safidan joy oldim. Nutqimning ravon bo'lishida beminnat dastyor – kitob bilan do'st bo'ldim. Bu do'stim yillar mobaynida yo'limni ziyo nurlari bilan yoritdi. Osmon kabi yuksak orzularim tomon yetakladi.

**ULG'AYGANIMNI SEZDIM**

Boshlang'ich sinfni tamomlab, 5-sinfga qadam qo'ydik. Hayot doimgidek davom etardi: o'sha yo'l, o'sha maktab, o'sha sinf xonasi, tanish chehralar... Ammo bunda sizning o'rningizni hech kim, hech narsa bosolmadi. Sababi biz endi uyg'ayib borayotgan edik. Siz esa yana beg'ubor, jajji qalb egalarini biz kabi o'z qanotingiz ostiga oldingiz. Ilk marotaba sizni ular bilan ko'rganimda qizg'ongan edim. Tushunib yetganimda esa, bu qalbga shirin xotira va mislsiz sog'inch to'ldirdi. Bu shunday sog'inchki, diydor bilan taskin topmaydi. Diydor damlarida ham diydorga ichikadigan sog'inch. Bu sog'inch xotira daftarimda "Mening birinchi o'qituvchim" degan sarlavha bilan muhrlanib qoldi.

Yodimda, maktabni bitirish arafasida ustozimiz "Kim bo'lsam ekan?" mavzusida insho yozib kelishimizni aytdi. Shunda hech ikkilanmay "Ustozim kabi o'qituvchi bo'laman" degan fikr xayolimdan o'tdi. Qo'limga qalam oldim-u, ammo sizdek fidoyi, jonkuyar ustoz ta'rifiga munosib so'z topolmadim.

**NIHOYAT TALABAMAN!**

Uyqudan voz kechib, kechasi bilan kitobga tikilganlarim foyda berib nufuzli O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetining harbiy jurnalistika yo'nalishi talabasi bo'ldim. Talabalikning eng baxtiyor, shirin lahzalari og'ushida yurganimda sizni uchratdim. O'sha mehr to'la nigoh, samimiy so'zlar. Yurishi, kiyinishi va so'zlashi bilan shogirdlari qalbida havas uyg'otgan, ularga ibrat bo'lgan muallimaning chehrasida yillar tarixi ufurib turardi. Harbiy formada ko'rganinggizda, "Bu mening o'quvchim" deya hamkasblaringizga maqtaganingizda quvonib ketgandim.

Siz menga hali ham o'sha sochlari paxmoq, sinfdoshlaridan jussasi kichikligi bilan ajralib turadigan, biroz sho'x qizaloqqa qaratolgandek bo'lardingiz. Yoshligimga qaytdim, bir on. Sizni juda sog'inibman. Shunda o'zimni aybdordek his qildim. Siz bergan bilim tufayli talaba bo'libman-u, bir og'iz "rahmat" aytish, holingizdan xabar olishni xayolimga ham keltirmabman. O'sha kuni bayramlarda, albatta, uyingizga borishga va'da berib xayrlashdim.

**BUGUN...**

Vaqtim yo'qligini bahona qilib, men uchun yuragidan joy, umrining to'rt yilidan imkon bergan insonni sog'insam-da, borolmayapman. Har safar ustozimni yodga olganimda, soxta taskinlar bilan vijdonimning sanchig'iga malham qo'ymoqchi, o'zimni ovutmoqchi bo'laman.

Bular mening birinchi o'qituvchim haqida yuragimdan izlab topgan mayda haqiqatlarim, xolos. Eng buyuk haqiqat shuki, bu inson qo'llarimga dastgoh qilib qalam emas, baxt tutqazgan. Qanot berib, kelajakka parvoz qilishni, to'siqlarni yengib o'tishni o'rgatgan. Maqsadimga erishishda sabr va bilim mening eng yaqin hamrohim ekanini uqtirgan. Bolalik hoyu-havaslari bilan to'ymagan qalbimni ma'rifat ziyosi bilan to'ldirgan.

Ortda qolgan yillar kinotasma kabi ko'z oldimda aylanarkan, "bugun menga hech qanday bahona to'siq bo'lolmaydi", dedim-da, do'kondagi eng chiroyli guldastani bag'rimga bosganimcha, har bir so'zi hikmatga aylangan o'qituvchimning uyi tomon oshiqdim. Uning ostonasida meni beg'ubor bolaligim kutayotgandi...

**Nilufar ALIYEVA,**
**O'zJOKU talabasi**

24 OKTABR 2021-YIL O'ZBEKISTON PREZIDENTI SAYLOVI

# USTOZ OTANGDEK ULUG'!

## Sotsial-demokratlar o'qituvchi maqomini yanada ko'tarish tarafdori




Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

To'g'risi, biz ta'lim ahliga adolatchi nomzodning "jamiyatda o'qituvchi va murabbiylarning obro'-e'tibori va huquqiy maqomini yanada ko'tarish, ularning ish haqi va ijtimoiy mavqeyini oshirishga xizmat qiluvchi "O'qituvchining maqomi to'g'risida"gi qonun ishlab chiqiladi, degan gaplari moydek yoqib tushdi.

Chunki o'qituvchilarni, ustozlarni ulug'lash qadimdan kelayotgan udum hisoblanadi. Xalqimizda "Ustoz otangdek ulug'" degan naql ham bor. Falsafiy rivoyatlarga qaraganda, buyuk sarkarda Iskandar Zulqarnayndan so'rashgan ekan: "Nega sen o'z otang Filippdan ustozing Arastuni ko'proq ulug'laysan?!". Shunda Iskandar podsho aytgan ekan "Otam meni Xudodan so'rab, osmondan yerga olib tushdi, ustozim esa meni yerdan osmonga ko'tardi".

Insoniyat tarixida ustoz, murabbiyga bo'lgan hurmatga ko'plab misollarni keltirish mumkin. Rivoyatlarga qaraganda, ulug' bobomiz Sohibqiron Amir Temur ham ustozlarini o'ta ulug'lagan, hatto vasiyat qilgan ekanki, agar vafot etsam, ustozim Mir Said Barakaning oyoq tomoniga dafn etinglar, deb. Bu vasiyat bajarilgan va Go'ri Amir maqbarasini ziyorat qilganda buning tasdig'ini ko'rishimiz mumkin.

Aytmasdan iloji yo'q, tariximizda shunday davrlar ham bo'ldiki, muallimlar, ustozlar beobro', oyoqosti qilindi, dars o'tishning o'rniga paxta terdi, ko'cha supurdi, daraxt oqladi, o'sha davrlarda muallimning 5 soat darsidan 5 kilo paxta afzal edi, chunki paxta ko'zga ko'rinar, qo'l bilan ushlab ko'rish, og'irligini o'lchash mumkin edi, darsning esa bunday hissiy o'lchovi yo'q. Uning natijasi birdaniga ko'rinmaydi, uning inson kamoloti uchun ahamiyatini faqat aql bilan mushohada qilib anglash mumkin. Natijada maktablardagi iqtidorli o'qituvchilar, ayniqsa, erkak o'qituvchilar boshqa daromadliroq sohaga o'tib ketdilar, maktablardagi ta'lim-tarbiya ishi – hammasi ayollar yelkasiga yuklandi, erkaklar maktablarda juda kamayib ketdi. Masalan, Toshkent shahrida erkak o'qituvchilar soni 10 foizga yetmaydigan darajaga kelib qoldi. Bu hol yoshlarimizning psixologiyasiga, odob-axloqiga, ma'naviyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatganini har birimiz bugun yaxshi ko'rib turibmiz.

Yaxshiyamki, Yangi O'zbekiston davri boshlandi, ilm-fan, ta'lim sohasiga kun chiqdi, biz ham o'zimizning kerakli insonligimizni his qila boshladik, ko'cha tozalash, paxta terish o'rniga mazza qilib dars beryapmiz. Muhimi, o'sha darslarni kerak qiladigan talabalarimiz ham paydo bo'ldi, majburiy mehnat, korrupsiya degan balolardan qutuldik, oyliklarimiz ham 3-4 baravar oshdi, endi o'qituvchi xalqi ham o'z oyligiga kun ko'rsa bo'ladi, agar yaxshiroq harakat qilsa, qo'shimcha to'lovlar ham bir talay.

Shu jihatdan "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi nomzodining o'qituvchi maqomi to'g'risida alohida qonun qabul qilish haqidagi taklifi bugungi kunda o'ta dolzarbdir, chunki ustozni ulug'lagan el hech qachon kam bo'lmaydi.

# Saylovga oz qoldi. Nimalarni bilish muhim?

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida muddatidan oldin ovoz berish 2021-yil 14–20-oktabr kunlari o'tkaziladi.**

### MUDDATIDAN OLDIN OVOZ BERISH

24 OKTABR 2021-YIL O'ZBEKISTON PREZIDENTI SAYLOVI

- 2021-yil **14-20-oktabr** kunlari saylovda **muddatidan oldin ovoz berish** o'tkaziladi.
- Saylov kuni o'z yashash **joyida bo'lish imkoniyatiga ega bo'lmagan saylovchi** muddatidan oldin ovoz berish huquqiga ega.
- Muddatidan oldin ovoz berish uchun saylovchi **sababini ko'rsatgan holda tegishli saylov uchastkasiga ariza bilan murojaat qiladi.**
- To'ldirilgan saylov byulleteni **yopiq konvertda,** tegishli USKning **seyfida saqlanadi.**




### ДОСРОЧНОЕ ГОЛОСОВАНИЕ

24 OKTABR 2021-YIL O'ZBEKISTON PREZIDENTI SAYLOVI

- **Досрочное голосование** по выборам Президента Республики Узбекистан состоится **14-20 октября 2021 года.**
- Избиратель, **не имеющий возможности** в день выборов **находиться по месту своего жительства,** имеет право на досрочное голосование.
- Для осуществления досрочного голосования избиратель **с указанием причины** отсутствия в день выборов **обращается с заявлением** в соответствующий избирательный участок.
- **Заполненный избирательный бюллетень** будет **храниться в сейфе** соответствующей **УИК**




YOSHLAR OVOZI Молодежь Узбекистана

MUASSIS: O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI MARKAZIY KENGASHI

BOSH MUHARRIR: Hamza ABDULLAYEV

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.

MAS'UL KOTIB: Yelena KALININA

NAVBATCHI MUHARRIR: Iqbol PARDAYEVA

MUSAHHIHLAR: Shahribonu RAHMATOVA, Qirmizoy HAKIMOVA

Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

TAHRIRIYAT MANZILI: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32.

Telefonlar: (71) 233-22-16. (71) 236-79-95.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-3 formatda chop etildi. Hajmi – 3 bosma taboq.
Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41.
Indekslar: 203, 3203
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma G-1055
Adadi – 717
Bosishga topshirish vaqti – 21.00
Topshirildi – 20.00